

O'ZBEKISTON TOG'LARIDA TARQALGAN JUNIPERUS. L TURKUMI BOTANIK TAVSIFI, VAKILLARI VA AHAMIYATI

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo'nalishi 103-guruh talabasi*

***Ergasheva Ruxshona O'lmasbek qizi
Tojiboyev Murodali Umaraliyevich***

Andijon Davlat Pedagogika Intituti Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya:Maqola O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. turkumi o'simliklarining botanik tavsifi, ularning vakillari va ekologik ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Juniperus turkumi, o'simliklarning eng qadimgi va ekologik jihatdan muhim guruhlaridan biri hisoblanadi. Ushbu o'simliklar asosan tog'lik va tog'oldi hududlarida uchraydi va yuqori chidamlilikka ega bo'lib, qurug'ochilik va sovuqqa qarshi barqarorlik ko'rsatadi. Maqolada Juniperus turkumiga kiruvchi o'simliklarning xususiyatlari, ular o'sadigan biotoplar va ekologik roli batafsil tahlil qilinadi. O'zbekistonning Tyan-Shan, Farg'ona va Zarafshon tog'larida tarqalgan Juniperus vakillari, ayniqsa, Juniperus communis va Juniperus turkestanica kabi turlar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada Juniperus o'simliklarining xalq tibbiyoti va qurilish sanoatida qo'llanilishi, ularning iqtisodiy va ekologik ahamiyati, shuningdek, O'zbekistonning tabiatini saqlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqola ekologik barqarorlikni ta'minlashda va tabiiy resurslarni boshqarishda Juniperus o'simliklarining ahamiyatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Sarv,qubba, urug',changdon,quritilgan, dermatologiya, efir moyi, smola, vitamin,bakteriya, Revmatizm,alfa,betta,fitonsid.

Archa (Juniperus)-Sarvdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi 70 ga yaqin turi bor. Archaning bir jinsli yoki ikki jinsli shamol yordamida changlanuvchi o'simlik. Archaning erkak qubbasi sarg'ish, 3-6 changdonli qipiqsimon changchilardan iborat. Urg'ochi qubbalari yashil bo'lib qarama-qarshi yoki oldinma keyin o'rnashgan urg'g'ochi barg va urug'kurtakdan iborat. Qubbalari yumaloq diametrik 5 -20 millimert ichida 1-10 dona urug' bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Geografik tarqalishi: Archaning ko'pchiligi o'rta mintaqalarda o'sadi. Archaning ba'zi turlari tropik hududlardagi tog'larda uchraydi. Masalan SAVR archa O'RIK archa ZARAFSHON archasi QORA archa kabilar O'rta Osiyoda xususan O'zbekiston tog'larida tarqalgan va ular maxsus archa zonalarini tashkil qiladi. Archa Shimoliy yarimsharlarda ham bo'lib katta-katta o'rmonlar hosil qiladi. Xalq tabobatidagi ahamiyati. Archa juda ham foydali, dorivor, xushmanzara

o'simlik. Archa asab sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun archa yog'ochlaridan tayyorlangan yostiqlar ham mavjud.

Ular asabni tinchlantirish bilan nerv sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Undan chiqadigan hid bakteriyalarni yo'qotadi. Shamollash uyqusizlik va bo'g'im kasalliklarida archa yostiqlaridan foydalaniladi. Qadimda va hozirda ham ba'zi joylarda chaqaloqlarning qovuzloqlarini tozalashda archaning quritilgan barglaridan foydalaniladi. Archa revatizm kasalligiga ham davo. Revmatizm kasalligini alfa guruhli betta streptakkok bakteriyasi keltirib chiqaradi. Bu bakteriya tizzadagi nerv hujayralarini yemiradi archadagi fitonsid bakteriya uni yo'q qiladi. Buning uchun archaning nina barglaridan foydalaniladi. Archalarning yosh novdalari yig'ib olinadi. Yosh novdalari tarkibida efir moyi, qubba mevasida qandlar, oshlovchi bo'yoq, efir moyi va boshqalar bor. Xalq meditsinasida archaning g'udda mevasidan tayyorlangan qaynatma milk va og'iz bo'shlig'i kasalliklarida og'iz chayish uchun ishlatiladi.

ZARARLI

TAMONI BORMI? Archada keying 3-4 yil ichida archada unsimon qurt ko'payib ketgan. Shahar va qishloqlardagi archa va boshqa ninasimon bargli daraxtlarni yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Archa unsimon qurti urug'langan tuxumini archa shoxlarining po'stining tagiga qo'yadi. Natijada archa novdalarida chumoli va pashshalar to'planishi kuzatiladi. Bu albatta odamlarning g'ashiga tegadi. Bundan tashqari archa yo'lning ustiga ekiladi. Bundan tashqari uning so'ruvchi bitlari ham bor. Ular tabiatga va inson hayotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ularni doim dezenfiksiyalab turiladi.

Archa haqidagi qiziqarli ma'lumotlar;

1. Archa qarag'ayga tegishli daraxt.
2. Qadimgi archa 100-metr balandlikda bo'lgan.
3. Asosiy archa ildizi 10, 15 yillik hayotidan so'ng o'ladi va ikkilamchi ildizlar yer yuzasiga chuqur kirmasdan tarqala boshlaydi. Shuning uchun archa bo'ronli shamolga dosh bera olmaydi.
4. Archa yog'ochidagi tolalar juda teng taqsimlangan shuning uchun to'liq yoki qisman archadan yasalgan musiqa asboblari juda katta, tiniq tovush chiqaradi.
5. Tayganing asosiy qismini archa tashkil qiladi.
6. Archa barglarining taxmiman 15 foizi to'kiladi va ular qayta bahorda chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, archa inson va tabiat uchun juda ahamiyatli xisoblanadi. Shunday ekan har kim ham o'simlikga asoslangan mahsulotlardan foydalana olmaydi, lekin archa ishlatishda hech qanday taqiqi bo'lmasa, uning xususiyatlari sog'liq uchun eng foydali bo'lgan efir moylaridan insonlar o'z ehtiyojlarida foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaxarov V.B., Mamatov S., Общая биология. М., 2002;

2. Chyen-sov Yu.S.,Общая ситология , М.;1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., Biologiya, t. 1—3. M., 1990;
4. Mavlonov O., Biologiya (Ma'lumotnoma), T., 2003.
5. Y.Paratov ,Q.Jumayev “Yuksak o‘simliklar sestimatikasi”.Toshkent 2003 yil.
6. S.S.Saxobidinov “O‘simliklar sistematikasi” Toshkent 1996 yil.
7. M.Nabiyev “Shifobaxsh giyohlar” Toshkent 1980 yil.
8. Jumaev .K.X.Aslanova X.G..Tog‘rayhon (ORIGANUM TYTTHANTHUM GONTSCH)o‘simligining introduksion sharoitdagi bioekologiyasi.Eurasian Journal of Academic Research. ISSN2881-2020.30.04.21.No 1.744-751 sahifalar ilmiy maqola.
9. Xarkevich D.A „Farmakologiya" Meditdina.2005